

OAV vakillari “NKMK” AJ tomonidan 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar bilan tanishdi

O‘zbekiston, Navoiy, 2026-yil 12-mart – “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, yuqori turuvchi organlar topshiriqlari ijrosi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va Investitsiya dasturi ijrosi, korporativ boshqaruv, iqtisodiy va moliyaviy yo‘nalishlardagi ishlar, ishlab chiqarish jarayonlariga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, kadrlar tayyorlash, ishchi-xodimlarning bilim va malakasini oshirish, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, ochiqlikni ta‘minlashda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda ishlash bo‘yicha 2025-yilda amalga oshirilgan ishlar OAV vakillari va jurnalistlar uchun o‘tkazilgan matbuot anjumanida muhokama etildi.

Kombinat faoliyatining samaradorligini oshirish, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va eng yaxshi jahon standartlariga rioya qilish uchun korporativ boshqaruvning yondashuvlari doimiy ravishda takomillashtirilmoqda. **Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi va Boshqaruv** kompaniyaning yuqori boshqaruv va ijroiya organlari hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi “NKMK” AJ ustav kapitalidagi davlat ulushining aksiyadori funksiyasini bajarmoqda.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida hujjatlar va topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta‘minlash hamda nazorat qilish bo‘yicha zamonaviy tizim joriy etilgan. 2025-yilda **ijro.gov.uz** tizimi orqali **240 ta** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshirig‘i nazoratga olingan bo‘lib, ijrosi to‘liq ta‘minlandi va nazoratdan yechildi.

2025-yilda “NKMK” AJ tomonidan **135,6 trln. so‘mlik** mahsulot ishlab chiqarildi. O‘sish sur‘ati 2024-yilga nisbatan **102,1 foizga** teng bo‘ldi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi **3,15 mln. troy unsiya oltinni** tashkil etdi (2024-yilda bu ko‘rsatkich 3,1 mln. troy unsiyani tashkil etgan). Mahalliyashtirish dasturi doirasida **1,4 trln. so‘mlik** mahalliyashtirilgan mahsulot ishlab chiqarildi. Tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi doirasida **7,3 trln. so‘mlik** mahsulot xarid qilindi.

Investitsiya dasturi doirasida **561 mln. dollarlik** mablag‘ o‘zlashtirildi. Yangi loyihalarini amalga oshirish va amaldagi ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hisobiga **2 628 ta** yangi ish o‘rni yaratildi. “Muruntov” konini o‘zlashtirish V navbat 1-bosqich” investitsiya loyihasi 2025-yil yakuni bo‘yicha

to'liq amalga oshirildi. 2-gidrometallurgiya zavodida sorbsiya va regeneratsiya sexlarida qo'shimcha 30 ta sorbsion uskuna, quyultirish sexida 2 ta quyultirgich qurish, 16-nasos stansiyasini rekonstruksiya qilish, maydalash sexining ikkinchi binosini kengaytirish va sexning ikkinchi navbati loyihasi asosida 33-tegirmon blokini montaj qilish ishlari olib borildi. "7-gidrometallurgiya zavodining qayta ishlash quvvatini kengaytirish" investitsiya loyihasi doirasida 2025-yilda zavodda yana 4 ta yangi maydalash tegirmoni ishga tushirildi.

"Qoqpatas va Dovg'iztov oltin konlarida ma'dan qazib olish (III navbati)" investitsiya loyihasi doirasida o'tgan yilda 3-gidrometallurgiya zavodi biooksidlash sexida 9, 10-biooksidlash modullari, "Dovg'iztov" konida uzunligi 1 900 metr bo'lgan davriy oqim texnologiyasi majmuasi ishga tushirildi. "Zarmitan konining quyi gorizontlarini o'zlashtirish" investitsiya loyihasi doirasida 2025-yilda konda zamonaviy muhandislik inshooti – diametri 6,5 metr va chuqurligi 1 000 metr bo'lgan "Skipli" shaxta stvoli ishga tushirildi.

2025-yilda "Sustainable Fitch" xalqaro reyting agentligi tomonidan "NKMK" AJga '3' darajasida va umumiy 51 ball bilan ilk bor **korporativ ESG-reytingi** berildi. ESG-reytingini berish uchun agentlik Kompaniyaning barqaror rivojlanish strategiyasi va tashabbuslari, korporativ boshqaruv amaliyotlari hamda uning ijtimoiy va ekologik ta'sirini ijobiy baholadi. "Fitch Ratings" hamda "S&P Global Ratings" xalqaro reyting agentliklari "NKMK" AJning uzoq muddatli **kredit reytingini "Barqaror" prognozi** bilan "BB" darajasigacha oshirdi. Reytingdagi ijobiy o'zgarish Kompaniyaning mustahkam moliyaviy holati va faoliyatining barqarorligini aks ettiradi. London fond birjasida umumiy qiymati **500 mln. dollarga** teng **korporativ obligatsiyalar** muomalaga chiqarildi va joylashtirildi.

2025-yilda raqamli rivojlanish darajasi bo'yicha reyting baholash natijalariga ko'ra, "NKMK" AJ **98,7 ball** ko'rsatkich bilan **33 ta** xo'jalik boshqaruvi organi o'rtasida **1-o'rinni** egalladi. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasiga muvofiq kombinatda amalga oshirilayotgan raqamli transformatsiya dasturi doirasida o'tgan yilda korxonaning ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlariga raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha 40 dan ortiq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, "Raqamli 7-gidrometallurgiya zavodini yaratish" loyihasi doirasida zavodda texnologik jarayonlarni boshqarishning mavjud avtomatlashtirilgan tizimlari modernizatsiya qilindi va ular zavod operativ dispetcherlik boshqaruvining avtomatlashtirilgan tizimiga integrallashtirib, boshqaruv jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalari joriy etildi.

Bugungi kunda "NKMK" AJda **50 ming nafardan ortiq** ishchi-xodim mehnat qilmoqda. Shundan, xotin-qizlar 6 045 nafar, 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar

11 722 nafar, oliy ma'lumotli xodimlar 13 909 nafarni tashkil etadi. 2025-yilda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida **17 686 nafar** ishchi-xodim o'qitildi. Shundan, kombinatning **5 ta** o'quv markazida **14 915 nafar** ishchi belgilangan dasturlar bo'yicha qayta tayyorlandi va malakasini oshirdi. **2 771 nafar** rahbar va muhandis-texnik xodim sohasi bo'yicha respublika oliy o'quv yurtlari, mamlakatimiz va xorijiy malaka oshirish markazlarida malakasini oshirdi. **Qariyb 700 nafar** oliy o'quv yurtlarining bitiruvchilari kombinat korxonalariga ishga qabul qilindi.

O'tgan yilda "NKMK" AJ rahbariyati nomiga jami **3 108 ta murojaat** yozma, og'zaki, elektron va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali kelib tushgan. Virtual qabulxona orqali jismoniy va yuridik shaxslardan **1 773 ta murojaat** kelib tushgan. "NKMK" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori tomonidan **158 nafar**, bosh direktor o'rinbosarlari tomonidan **129 nafar** murojaatchi qabul qilindi.

2025-yilda kombinatda korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish hamda ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash yo'nalishida Komplayens xizmati tomonidan **24 ta** banddan iborat **chora-tadbirlar dasturi** hamda **9 ta** banddan iborat **yo'l xaritasi** to'liq bajarildi. **8 074 ta** ichki idoraviy hujjat loyihalari korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. **1 478 ta** funktsiya baholanib, shundan **1 ta** "yuqori", **19 ta** "o'rta" va **1 458 ta** "past" darajadagi xavf-xatarlar aniqlandi hamda ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan **14 ta** banddan iborat **chora-tadbirlar dasturi** ijrosi to'liq ta'minlandi. Kombinat ishchi-xodimlari bilan **146 marotaba** huquqiy targ'ibot va profilaktik tadbirlar o'tkazildi. Targ'ibot tadbirlarida **10 760 nafar** ishchi-xodimlar ishtirok etdi. Kombinatda ishga qabul qilingan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma talablari asosida **4 610 nafar** nomzod ustidan tekshiruvlar amalga oshirildi. Kombinatda faoliyat yuritayotgan **5 499 nafar** boshqaruv xodimlaridan yillik ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiya to'ldirtirildi. O'tgan yilning noyabr-dekabr oylarida kombinatda o'tkazilgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" davomida ishchi-xodimlar uchun **17 marotaba** targ'ibot tadbirlari o'tkazilib, televideniya **3 ta** chiqish qilindi. Tadbirlarda **1 455 nafar** ishchi-xodim ishtirok etdi. 2025-yil 20-noyabr kuni "NKMK" AJ tomonidan **"9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni"**ga bag'ishlangan **"Ochiq eshiklar kuni"** tadbiri tashkil etildi. O'tgan yilning iyul oyida "NKMK" AJ Markaziy apparati xalqaro sertifikatlovchi tashkilot tomonidan o'tkazilgan 1-bosqich kuzatuv auditidan o'tkazilib, yakuni bo'yicha **ISO 37001:2016 "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi"** xalqaro standart talablariga muvofiqligi tasdiqlandi. Kombinat faoliyatiga oid ochiq e'lon qilinishi

lozim bo'lgan ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar www.ngmk.uz rasmiy veb-saytida joriy etilgan **“Ochiq ma'lumotlar” bo'limida** doimiy tarzda yangilanib, belgilangan muddatlarda e'lon qilinmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati hamda Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan o'tkazilgan “Gender tenglik faoli” milliy tanlovining respublika bosqichida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ **“Gender tenglikni ta'minlashda eng faol respublika tashkiloti”** nominatsiyasida g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Ochiqlikni ta'minlashda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida amalga oshirilayotgan ishlar doimiy ravishda yoritib borilmoqda.

2025-yilda OAV vakillari va jurnalistlar uchun mas'ul rahbarlar ishtirokida **10 ta** brifing, **3 ta** matbuot anjumani, **1 ta** press tur va **1 ta** “Ochiq eshiklar kuni” tashkil etildi. Ommaviy axborot vositalarida (Internet, TV, gazeta, radio) “NKMK” AJ faoliyati to'g'risida **434 ta** xabar, yangilik, maqola, videolavha, reportaj, eshittirish e'lon qilindi. O'tgan yilning yanvar-dekabr oylarida www.ngmk.uz rasmiy saytda o'zbek, rus, ingliz tillarda **305 ta** xabar, yangilik, maqola, tahliliy maqola, infografika joylashtirildi. “Telegram”, “Facebook”, “Instagram”, “Youtube”, “Twitter”, “LinkedIn” ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda **10 000 dan ortiq** post va videolavha joylashtirildi. Xorijiy OAV da **40 ta** xabar, yangilik, maqola, tahliliy maqola e'lon qilindi.

Tadbirda OAV vakillari va jurnalistlarning savollariga atroflicha javoblar berildi.

2025-yilda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot bilan www.ngmk.uz rasmiy veb-saytning “Ochiq ma'lumotlar” bo'limida [quyidagi havola](#) orqali batafsil tanishish mumkin.

“NKMK” AJ Matbuot xizmati